

## O'ZBEK KINO SAN'ATINING RIVOJLANISH BOSQICHIDA AKTYOR SHAXSINI TARKIB TOPTIRISHGA BO'LGAN YONDASHUVLAR

Sevara Shokirovna Rajabova  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek kino san'atida professionalizm masalasini o'rghanish, tadqiq qilish, uni ilmiy-amaliy jihatdan asoslash hamda ushbu jarayonga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** kino, san'at, ekran, film, texnika, aktyor, rejissyor

### APPROACHES TO FINDING THE ACTOR'S PERSONALITY AT THE DEVELOPMENT STAGE OF UZBEK CINEMA ART

Sevara Shokirovna Rajabova  
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article talks about studying and researching the issue of professionalism in modern Uzbek cinema, substantiating it from a scientific and practical point of view, and developing scientific and methodological recommendations for this process.

**Keywords:** cinema, art, screen, film, technique, actor, director

Istiqlol yillaridan boshlab mamlakatimizda ekran san'ati uchun erkin ijod davri boshlandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, nafaqat ekran san'ati, balki san'atning barcha turlari rivojiga hissa qo'shayotgan iqtidorli yoshlarimiz uchun qulay ijodiy imkoniyatlar yaratildi. Bu esa yosh kinorejissyorlar uchun o'z imkoniyatlarini sinab ko'rish sharoitini yuzaga keltirdi. Natijada, milliy kino san'atini rivojlantirishga asos bo'ladigan ijodiy raqobat muhiti kuchaya boshladi.

Kino san'ati muayyan voqelik chizgilarini ifodalash uchun yaralgan ekan, uning narsalar mohiyatiga kirib borishi, uning nutq bilan, tovushlar bilan, musiqa va tabiat manzaralari bilan birgalikdagina hayotni to'la-to'kis, mujassam holda ko'rsata olish qobiliyatini chetga surib qo'yish mumkin emas. Real voqelikda ko'rish va eshitish mumkin bo'lgan har qanday murakkab tasvir va tovush mujassamini yetkaza bilish qobiliyati kinoda mavjud ekan, kino tomoshabinni voqeа ichiga kirib borishga, ko'r ganlarning barchasini his etishga majbur qila olar ekan, demak, kinematografiya boshqa san'at turlariga qaraganda, hayotga ham ancha yaqin va, shubhasiz, u millionlab tomoshabinlarga tushunarli bo'lgan o'z tiliga ham ega. Kinoshunos Z.Lindgren kinoning barcha tarkibiy qismlarini birlashtirib turuvchi

hamda kinoga badiiy yaxlitlik bag‘ishlovchi jihat - harakatdir, deb hisoblaydi. Bunda u filmda bo‘lib o‘tadigan voqealarni qismma-qism bayon qilib beradigan fabuladagi harakatni emas, balki filmdagi asosiy mazmun haqida tasavvur beradigan syujetning harakatdagi ifodasini nazarda tutadi. Shu tariqa, syujetni ifoda qilib bera oladigan harakatni Z.Lindgren “fabula mazmuni” deydi. Buning o‘zi “film ichidagi harakatlar” atamasiga ma’nodoshdir. Muallif film mazmunini qanchalik aniq ifodalay olsa, asarning badiiy yaxlitligi yanayam mukammal ifodaga erishadi. Bu voqeа 1887-yil bo‘lib o‘tgan. Bir kuni, kechki payt, Eski shaharning Chorsu maydoni guzarida allaqanday asbob-uskunalar ko‘tarib olgan odam paydo bo‘ladi. U hech narsa gapirmasdan, odamlar u yoqdan-bu yoqqa o‘tib turgan guzar bo‘yida oppoq bo‘z gazlamasini yoyib yuboradi va ayni lahzalarda, yo‘lovchilar shu paytgacha qulqoshitib, ko‘z ko‘rmagan tomoshaga guvoh bo‘ladilar. Qosh qoraya boshlagan paytda, tevarak-atrofnı yaraqlagan nur kesib o‘tadi-da, ekranga yo‘naladi... Ekranda ulkan bir notanish shaharning tasviri aniq-tiniq ko‘rinadi - odamlar ko‘chalarda shaxdam qadam tashlab borar, karetalar o‘tib-ketib turar, zavod mo‘rilari tutun qaytarib yotardi...

G‘aroyib manzaralardan esi og‘ib qolay degan tasodifiy tomoshabinlar ekran oldida guras-guras to‘planib qoldilar. Mana, endi ekranda parovoz paydo bo‘ldi, mana, u yaqinlashib kela boshladi, parovoz yaqinlashgani sayin uning basti kengaya boshlagach, odamlar shovqin ko‘targanlaricha chor tarafga hay-haylab qochib qoladi.

Bu manzaralarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlarning guvohlik berishicha, Turkistonda ilk kinoseanslar mana shunday o‘tgan ekan. Bugungi kun nuqtai nazaridan qaraganda, endilikda, bu manzara anchagina g‘ayritabiiy ko‘rinsa-da, asl haqiqat mana shu, ya’ni, bundan yuz yigirma yillarcha avval turli mamlakatlarda tomoshabinlar oppoq ekrandagi voqealar tasvirini ko‘rib, xuddi shunday yoki shunga o‘xhash ahvolga tushib qolgan edilar. Darhaqiqat, ushbu ma’lumotlar o‘ta noyob bo‘lib, ular kino san’atining paydo bo‘lishi, uning boshqa san’at sohalariga sira o‘xshamagan, o‘ziga xos yo‘ldan rivojlana boshlaganidan darak beradi. Bundan shuni anglash mumkinki, badiylikka bo‘lgan ehtiyoj yangi texnika vositalarini kashf etib bermagan, balki yangi kashf etilgan texnik ixtiro badiiy bir sohaning yangidan paydo bo‘lishi va rivojlanishiga asos soldi.

Kinoning dastlabki tasvirlari xatti-harakatlar yig‘indisidangina iborat edi. Ularda otlarning chopishi, aravalarning borishi, temir yo‘ldan poyezdning kelishi, sport musobaqalari ishtirokchilarining harakatlari aks etardi. Bu qisqa-qisqa tasvirlarda hali voqeа, syujet degan elementlar rejissyor va aktyorlar ta’siri yo‘q edi. Filmlarni fotograf usta suratga olgan edi. Kino ibtidosidagi dastlabki tasmalarni qayerda bo‘lsa, shu yerda namoyish qilib ketishaverardi. Tasvirlar ko‘pincha yarim qorong‘i, g‘ira-shira oshxonalarda namoyish qilinar, ilk tomoshabinlar ham tasodifiy odamlar, asosan, ko‘chadan o‘tib borayotgan yo‘lovchilar bo‘lardi. Binobarin, tadqiqotchi R.Kopilovaning quyidagi so‘zlarida jon bor, u shunday yozadi: “Kinematograf bir

necha marotaba qayta tug‘ildi: dastlab, u texnik ixtiro sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik, u tomosha-attraksion tusini oldi va nihoyat, o‘zining maxsus badiiyatiga ega bo‘lgan san’at sohasi sifatida bunyodga keldi”. Mana shunday ilmiy-texnikaviy taraqqiyot asosida ekran sohasi kelib chiqdi.

Texnika taraqqiy topib, rivojlangani sayin, kino badiiyati ham o‘sib-kengayib bordi, avvaliga, tasvirlar ovozsiz namoyish qilingan bo‘lsa, endilikda, asta-sekin kinoda ovoz, rang yuzaga keldi, ekranning hajmi kengaya boshladi.

Kino tarixining yuz yildan ortiq vaqt mobaynidagi tajribalarini ko‘zdan kechirsak, oddiy fotosuratning harakatga kirgan ko‘rinishlari “Poyezdning kelishi”, “Suv sepayotgan odam”dan, to zamonaviy rangli filmlarning hozirgi paytdagi erishgan yutuqlarigacha bo‘lgan davrda turlicha rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirganligiga guvoh bo‘lamiz. Bugungi kinoning mustaqil san’at sohasi ekanligiga shubha bilan qarovchi kishi bo‘lmasa kerak. Shu bilan birga, ekrandagi bu mo‘jizaviy san’atning estetik jihatlarini, go‘zal moliyavini inkor qilmagan holda, kinematografiyanı qat’iyan sanoatga bog‘lab, uning moliyaviy manfaatdorlik xususiyatlarini birinchi o‘ringa qo‘yuvchilar ham yo‘q emas. Taniqli kinoshunos A.Malro o‘zining “Kino ruhiyati haqida ocherklar” kitobida shunday fikrni qayd etadi: “Kim nima deyishidan qat’iy nazar, oxir- oqibatda kinoning sanoat turi ekanligini tan olishga majburmiz. Xullas, kino haqida bahs-munozaralar hali-hanuz to‘xtamayotgani ham bu san’atning, nihoyatda, o‘ziga xosligidan bir darak”[1].

Haqiqatdan ham, film - sanoat turi sifatida studiyalarda ishlab chiqariladi. Ya’ni, bu kinomahsulot ishlab chiqarish uchun texnika vositalarining bir joyda jamlanishini anglatadi. Endi, bunga ulkan moliyaviy mablag‘ni hamda turli xil mutaxassislarining guruh-guruh bo‘lib mehnat qilishlarini qo‘shing. Xo‘sish, kinoning ma’lum yutuqlarga erishishida uning badiiy san’at turi sifatidagi yoki sanoat turi sifatidagi xususiyatlari bir-biriga xalaqit qiladimi? Bu savolga qaysidir ma’noda: “Ha, albatta, xalaqit qiladigan tomonlari ham bor”, deb javob berish mumkin. Kinomahsulot ishlab chiqarish uchun katta-katta pul mablag‘larini o‘rtaga tikadigan prodyusserlarni filmning badiiy jihatlari ko‘pam qiziqtiravermasligi tabiiy. Shu bilan birga, filmning sifatlari chiqishi uchun suratga olish jarayonida hozirgi zamon uskunalarining ahamiyatini ham inkor etib bo‘lmaydi. Vaholanki, ushbu san’at uchun katta moliyaviy mablag‘lar ajratayotganlar filmdagi badiiyatni na kuchaytirish, na kamaytirish qobiliyatiga ega.

U yoki bu xil filmning badiiyatini tahlil etish borasida, biz filmning tashqi jihatlariga (uni ishlab chiqarish uchun qancha mablag‘ ketgani-yu, filmni suratga olishda qanaqa texnik vositalar qo‘llanilganligiga) e’tibor qilavermaymiz. Biz uchun bundanda muhimroq jihatlar bor, bular: film ijodkorlarining laboratoriyasidagi ishlar, film ifodaviy vositalari (stilistikasi)ning mazmuni, obrazlari, asarning o‘ziga xos badiiyati masalalaridir.

E'tibor qiling, biz shu tariqa filmning anatomiyasi (ichki tuzilishi), tili, badiiyati masalalariga yaqinlashib kelayapmiz. Kinoshunoslar, kino san'ati nazariyotchilarini xuddi shu nuqtalar xususida ko'proq bahs-munozaraga kirishadilar. Masalan, "kinoasar tili" deganda nimani tushunish kerak? Bu iboraning mazmuni bormi o'zi? "Albatta!" - deydi ba'zi kinotanqidchilar. Fransuz kinotanqidchisi Jan Kokto: "Film - tomoshabin ko'zi oldidagi xatdir", degan fikrni ham aytadi. Yana bir kinoshunos Aleksandr Arnuning ta'kidlashicha, kino o'z lug'at boyligiga, sintaksis tuzilishiga, fleksiyasiga (ichki o'zgarishlariga), shartli belgilariga ega bo'lgan san'at. Bunday ta'kidlarga qarshilik bildiruvchi kinoshunoslar ham bor.

"Shiddat ila o'zgarayotgan tasvirlardan iborat filmda tilning shartli tizimi belgilarini topishga urinar ekanmiz, va ayniqsa, ushbu tizimning mohiyatini anglash usullarini topmoqchi, uni shakllantirmoqchi bo'lsak, avvalo, film tili haliyam xashaki taqlid bosqichidan chiqa olmayotganini tan olishimiz kerak, - deb yozadi Koen Seat. - Hozircha esa filmlarimiz tasvir va tovushni to'g'ridan-to'g'ri va bevosita uzatish bosqichidadir"[1].

Kino tabiatи va uning ifodaviy vositalari haqida gap ketar ekan, montaj bosh xususiyatlardan biri ekanligini ta'kidlash lozim. M.Marten montaj ishlarini: "Kino tilining maxsus va o'zak qismlaridan biri", deb atagan edi. Kinoasardagi sur'at (temp) ham, ohang, vazn (ritm) ham montaj tufayli yaraladi. Oddiyroq qilib aytadigan bo'lsak, montaj - film kadrlarini ma'lum tartibda va ketma-ketlikda joylashtirib chiqish demakdir.

Montajning turli shakllari, usullari mavjud. Montaj - hikoya. Montaj - ifoda. Montajni film mazmunidan ajratib qarab bo'lmaydi. "Montaj, - deb yozadi V.Pudovkin, - real voqelikda mavjud bo'lgan ayon va noayon aloqalarni aniq-ravshan qilib ko'rsata olish usullarini topish va bu usullarni rivojlantira bilishdir" [1, -B 25]. Bundan montaj - g'oya va fikrlarni tashuvchi vosita, degan ma'no kelib chiqadi.

Z.Lindgren montaj ishlarida san'atning boshqa turlari erisha olmaydigan alohida bir kinematografik-she'riy til (poetika, go'zallik) manbai bor, deb hisoblaydi. Agar adabiyotda so'zlarning joylashuvi, ularning birikib kelishi, jarangi, ohangi va hokazo xususiyatlari ila badiiy asarning poetik olami yaratilsa, kino san'atida kadrlarning joylashtirilishi va ketma-ketligi orqali xuddi shu maqsadlarga erishish mumkin. Bu - kinematografik tilning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini bildirmaydi, albatta. Buni shunday tushunish mumkinki, montaj orqali kadrlarni joylashtirish imkoniyatlari badiiy asarda mazmunni ifodalovchi unsurlar bajaradigan vazifalarga o'ta yaqin. Ekrandagi harakat va tasvirning ma'lum vaqt davom etishi - kinematografiyaning mohiyatini belgilovchi sifat, uning bosh xususiyatidir. Biz yuqorida kinoning real voqelik tasviri ekanligi, voqelikning tashqi belgi-nishonlarini tashuvchi xususiyatlari haqida gapirgan edik. Shu o'rinda, shamolda to'zg'ib-uchib yurgan yaproqlarni yoki vokzalga bostirib kirib kelayotgan poyezdning paydo bo'lganini ko'rgan ilk



tomoshabinlar o'sha lahzalarda qay holatga tushganliklarini bir eslab o'tish maqsadga muvofiq.

Vaqt o'tgani sayin, kinoda ovoz ham paydo bo'ldi, ya'ni kino real voqelikni tasvirlashda hayotga yanada yaqinlashdi, yangi imkoniyatlar bilan boyidi. Bunga qo'shimcha, kinematografiya tasvirida yangi usul - yiriklashtirilgan rejada suratga olish usuli kashf etildi. Bu esa kinoijodkorlar uchun haqiqiy san'at yaratish imkoniyatlarini kengaytirib yubordi. Shubhasiz, kinematografiyada ifoda vositalarining tobora mukammallahuvi ekran san'atidagi eng asosiy asbob - kinokamera bilan ham bog'liq. "Kinematografik texnikalar tarixini kameraning mukammallahuv tarixi sifatida qarash ham mumkin", - deb yozadi kinoshunos A.Astryuk. Kinematografiyaning kelib chiqishi, aslida, rejissyor hayolida suratga olish apparatini tasvir maydonida nari-beri surish fikri paydo bo'lgan lahzalar bilan chambarchas bog'liq. Ekranda kamera yordamida vujudga keltiriladigan real voqelik o'z-o'zidan yoki beixtiyor paydo bo'lib qolmaydi, balki bu voqelikni rejissyorning o'zi tashkil qiladi va bu sharoit rejissyor ko'zda tutgan badiiy talab va shartlariga bo'ysunadi. Kinoijodkorlikda muallifning ichki olamini ifodalash vositalari to'g'risida L.Bunyuel quyidagi fikrni aytadi: "Men o'zimning nimalarni xohlayotganimni hamisha aniq tasavvur qilaman. Men kameraga bo'ysunmayman, aksincha, kamera men ko'rayotgan narsalarni tasvirga oladi, olishga majbur. Men hech qachon texnikani o'ylamayman[2, - B 27]".

Taniqli kinematografchilardan biri P.Grinuey kinoijodkorlarni o'tmishdagi qotib qolgan stereotiplarga ko'pam berilavermaslikka da'vat etar ekan, shunday yozadi: "Nimanidir boshlash uchun unutmoq yoki butunlay yo'q qilmoq zarur. Men sizlarga, modernchi (zamonaviy, yangilikparast) bo'linglar, demoqchi emasman. Men bunga qarshiman. Lekin men shuni tushunamanki, men kinematografchi sifatida nimanidir kesib tashlashim, kino olamidagi ro'y bergan dahshatli halokatni unutishim, u haqdagi hamma narsani butunlay yoddan chiqarib tashlashim kerak. Shu paytgacha, kinoda nima ish qilingan bo'lsa, bularning bari - faqatgina muqaddima, faqatgina boshlang'ich qism. Haqiqiy kinoni yaratish uchun shuncha ko'p besamara harakatlar qilinibdi-Y. Men o'zimga mana shu fikrni singdirishga urinaman" [3 - B 41].

Bugungi kunda insonning ong-tafakkuri, hayotiylik va ramzlar, janriy chegaralarning yo'qolishi, kino asarlarda hujjatlilik va publisistikaning kuchayishi, san'at yaratayotgan shaxs va uning o'zini ifoda qila olishi - bularning bari kinematografning shiddat bilan o'zgarayotgan manzaralari sirasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Demak, kino san'ati borasida mulohazalar ham, munozaralar ham davom etib boraveradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. - T,: Davlat ilmiy nashriyoti



2. Axmedov B. O‘zbek television kinosining rivojlanish tarixi. - T,: Akademiya, 2009
3. Aliyev M. Kino asoslari - T,: O‘qituvchi, 1983